

OGAHIY DURDONALARI**Ruxsora Shukurova Abdulhofiz qizi***Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2-kurs talabasi**Ilmiy rahbar: PhD***Mahfuza Ortiqova**

Annotatsiya: *Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy chindan ham nafaqat o'zbek va Sharq mumtoz so'z san'ati, balki jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rinn olishga arzirli, ko'plab nazm durdonalarini yaratgan zabardast shoirlardan biridir. Ushbu maqolada Sharq she'riyatining deyarli barcha janrlarida qalam tebratgan serqirra va sermahsul ijod sohibining hayoti va yetuk asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Ogahiy hayoti, Xorazm diyor, mirobilik kasbi, devon, qo'lyozma nusxalar, nazm, tarix.*

Ma'lumki, Xorazm diyorida ilm-u fanning barcha jabhalarida o'z iste'dodlarini namoyon etgan, ko'plab ma'rifatparvar allomalar yetishib chiqqan. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek „Xorazm-noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvar g'oyalari bilan adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o'choqlaridan biridir.

Xorazm zaminida kamol topgan ne-ne allomalar, fozilu-fuzalolar, mutafakkiru-ma'rifatparvarlar Vatanimiz shon-shuhratini butun dunyoga taratgan”.³³ O'tkan asrimizdan bugungi kungacha nafaqat Xorazmdan, balki yurtimizning barcha hududlaridan ilm nurini taratgan buyuk shaxslar, mudarrislar, faqihlar, mutassavirlar o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ular qoldirgan ilmiy-adabiy meroslarda Vatanga muhabbat, diniy bag'rikenglik, odob-axloq, umuminsoniy qadriyatlar, ilm olishlikka da'vat etuvchi milliy-ma'naviy ezgu g'oyalalar va bebafo bilimlar mavjud. Har bir mutafakkirlarimizning ilmiy meroslarini, ibratli hayotlarini o'rganish, tahlil qilish bizga butun bir olam baxsh etadi va oldimizdag'i asosiy vazifalardan biridir.

Shu sababli, namoyondalarimizdan biri o'zining sermahsul ijodi bilan adabiy xazinamizni boyitgan tarixnavis, zabardast olim, zamonasining ilg'or farzandi Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodidan qisman bo'lsada ma'lumot berishni lozim topdik. U XIX asrning birinchi yarmida Xorazm zaminida yashab, ijod etgan va avlodlarga katta ilmiy me'ros qoldirgan siymolardan biridir. 20 yoshidan boshlab mirobilik lavozimida faoliyat yuritgan, xalq hayoti, saroy ishlari bilan shug'ullangan. 30 yoshlarida amakisi Munisning tugatishga ulgurmay qolgan „Firdavs ul-iqbol“ nomli katta tarixiy asarini davom ettirib, Olloqulixonning Xiva taxtiga o'tirish yili voqealari bayoni bilan yakunlaydi. Ko'rinish

³³ I. Karimov „Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir”, -T.:O'zbekiston, 1996.

turibdiki, Ogahiy mirobilik bilan birga ijodiy faoliyatini ham olib borgan. O'zining she'riy misralarini 1852-yilda „Taviz ul oshiqin“ devonida to'plagan bo'lib, bu devon qariyb 18 ming misradan, (9 ming baytdan) iborat. Devonda o'zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan poeziyaning hamma janrlarida juda yaxshi namunalar keltirilgan. Bu devon ma'rifatparvar shoh va shoir Feruz Muhammad Rahimxon II ning taklif va talabi bilan 1872-yilda tuzilgan. Devonga „Ash'ori forsiy“ nomi bilan fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Bu to'plamdag'i asarlar mazmun-mundarijasi markazida-ishq turadi. Bu asarining fanga 9 ta qo'lyozma nusxasi ma'lum bo'lib, shundan 5 tasi (Toshkent, Leningrad, Dushanbe)da bo'lib, bu qo'lyozmalar bir nechta fondlarda saqlanadi. Ogahiyning „Riyoz ud-davlat“, „Zubdat ut-tavorix“, „Jome ul voqeoti sultoniy“, „Gulshani davlat“, „Shohid ul-iqbol“ nomli asarlari 6 ta Xorazm xonlariga bag'ishlangan shuningdek, Xorazmning 1813-yildan 1873-yilgacha bo'lgan tarixi, uning siyosiy, iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, sug'orish ishlari, kasb-hunar va boshqa sohalarni izchillik bilan bayon etadi. U katta isde'dod egasi bo'lganligi uchun devon va asarlar yozish bilan birga, tarjimonlik bilan ham shug'ullangan. Sharq adabiyotining 19 ta durdonasini o'zbek tiliga tarjima qilgan zabardast va sermahsul tarjimon ham hisoblanadi. Ogahiy tarjima qilgan kitoblarning to'qqiztasi badiiy, oltitasi tarixiy, va to'rttasi axloqiy yoki falsafiy-axloqiy xarakterdagi asarlardir. Adabiyot tarixida hech bir adib tarjima sohasida bunchalik katta mahsul yaratgan emas. Ogahiy asarlarini haqqoniy, aniq ma'lumotlarga asoslangan holda, o'zi ko'rgan kishilar, guvohi bo'lgan voqealarni, ortiqcha biron jumla qo'shmasdan, har-bir voqealisa haqida ishonchli ma'lumot to'plagan holda yozgan. Asarlarida biron bir shaxs haqida yozar ekan unga ta'rif beradi, xulq atvori, fazilatlari va kamchilliklarini mohirlik bilan yaqqol gavdalantiradi. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, ta'rif berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondoshgan. Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan, o'zigacha bo'lgan 7-8, 10-12 g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan. Uning g'azallari „Shoshmaqomning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi. Shu sababli bugunki kunda Ogahiy qalamiga mansub nazmlar kuyga solinib, yangrab turadi.

Adib asarlaridagi teran bilim, katta hayotiy tajriba, keng dunyoqarash mahsuli bo'lgan hikmat darajasidagi she'r va baytlari uning mutafakkir shoir ekanligiga yorqin dalildir. Shoirning o'z ta'biri bilan aytganda

Haddin afzunroq berubbdur Tangri iste'dod anga.³⁴

Ogahiy haqida gap ketganda marhum ustozlardan G'ulom Karimov va Subutoy Dolimovlarning mana bu fikrlarini eslash joiz: „Qoldirgan ijodiy merosining hajm jihatidan ham, adabiyotimiz va madaniyatimiz oldida qilgan xizmatlari jihatidan ham va nihoyat shaxsiy iqtidori, badiiy talanti va qudrati jihatidan ham Alisher Navoiydan keyin

³⁴ E. Ochilov.Jamoling jilvasi// Toshkent-O'zbekiston, 2013

adabiyotimiz tarixida Ogahiyning oldiga tushadigan san'atkor bo'lmasa kerak..³⁵ Haqiqatan ham ulug' Navoiydan keyin u singari "ko'p va xo'p" yozgan ijodkor XIX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Muhammad Rizo Ogahiy edi. Shoiring butun ijodiy merosi shunday xulosa chiqarishga to'la asos bo'la oladi.

Darhaqiqat, Ogahiyning mahorat bulog'i mahsuli bo'lgan asarlari, axloqiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy mavzularda bo'lishidan qat'i nazar, keljak avlod uchun haqiqiy adabiy yodgorlik sifatida tarixga muhrlangan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Ogahiyning bizgacha yetib kelgan nasriy va lirik merosi nafaqat yoshlar ongi, insoniyat ma'naviyatining kamol topishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi kunda shoir shaxsiyatini abadiylashtirish bilan bog'liq holda amalga oshirilayotgan ulkan ishlar diqqatga sazovordir. Shoir ijodining har tomonlama o'rGANIishi, jamiyatga tadbiq etilishi, keyingi avlodlarga yetkazilishi ma'lum darajada bizga ham bog'liq, chunki Sharqshunoslik universitetida ta'sis etilgan „Ogahiy” nomidagi stipendiya aynan adib durdonalarini chuqur tadqiq etishga va bobomiz ijodi bilan xalqni yanada kengroq tanishtirishga sabab bo'ladi desam mubolag'a bo'lmaydi. O'ylaymizki, ogahiyshunoslik rivoji butun ijtimoiy fanlar rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Zero, Muhammad Rizo Ogahiy merosi milliy ma'naviy mulkimizning ajralmas salmoqli qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I. Karimov „Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir”, -T.:O'zbekiston, 1996. 2-bet
2. F. Karimov, C. Dolimov. Muhammad Rizo Ogahiy// Ogahiy asarlari , 6 jildligining 1-jildiga so'z boshi. Nashrga tayyorlovchi Karimov F.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1971. 5-bet
3. Munirov Q. Ogahiy tarixchi//Sharq yulduzi.1959
4. E. Ochilov.Jamoling jilvasi// Toshkent-O'zbekiston, 2013
5. Z.Qurbanboyeva, O'.Ne'matov, M.Muhammadova, D, Raxmonova. M.Toshtemitova. Ogahiyning badiiy kashfiyatlari// Toshkent 2021

³⁵ F. Karimov, C. Dolimov. Muhammad Rizo Ogahiy// Ogahiy asarlari , 6 jildligining 1-jildiga so'z boshi. Nashrga tayyorlovchi Karimov F.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1971. 5-bet